O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQALASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

## Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasining 90 yilligiga bag‘ishlab «NUTRITSIOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

# TEZISLAR TO‘PLAMI




Toshkent-2026

# DIAREYAGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNING ANTIBIOTIKLARGA SEZGIRLIGI

***Mamatmusayeva Fotima Shaydullayevna***

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti*

Mavzuning dolzarbligi: Turli mamlakatlarda oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasida shu maʼlum boʻldiki, xizmatchilarning xizmat safarlariga oid sayohatlarda 38–45% holatlarda diareya sababchilari enterotoksigen Escherichia coli (ETEC), Campylobacter va Shigella ekanligi aniqlangan. Bizga maʼlumki, sayohatchilar diareyasini davolashda, asosan siprofloksatsin, azitromitsin va rifaksimin kabi antibiotiklar qoʻllaniladi. Biroq, ushbu antibakterial dori vositalarining doimiy va tartibsiz qoʻllanilishi ichak patogenlarida Shu sababli, hozirgi diareya chaqiruvchi agentlarning global epidemiologiyasi va ularning antibiotikka chidamliligi haqidagi zamonaviy maʼlumotlarga ega boʻlish diareya xavfini kamaytirishda juda muhimdir.

Tadqiqot maqsadi: sayohatchilar diareyasini chaqiruvchi bakterialarning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqotimiz 2025 yil davomida “Yuqumli kasalliklar” boʻlimida oʻtkir ichak infeksiyasi, diareya tashxisi bilan davolanayotgan bemorlarda oʻrganildi. Tadqiqotga kiritilgan bemorlarda diareyaning etiologik agentini aniqlash maqsadida taxminan 4–10 gramm najas olindi.

Najas namunalarida ichak bakterial patogenlarni aniqlash uchun quyidagi ozuqa muhitlarga ekildi: Endo, Qonli agar, Vismut-sulfit agar, mannitol-salt agar, tiosulfat-sitrat-oʻt tuzi-saxaroza (TCBS), Rappaport muhiti, buferlangan peptonli suv, SSA, ishqoriy peptonli suv, Ploskiryov va qonli agar muhitlari. Barcha ajratib olingan ichak patogenlari antibiotiklarga sezuvchanlik boʻyicha EUCAST standarti orqali baholandi.

Tadqiqot natijalari: Sayohatchilar diareyasiga olib keluvchi agentlar sifatida Campylobacter va diareagen Escherichia coli topildi. Bu esa oʻtkir diareya etiologiyasida mazkur mikroorganizmlarning yetakchi oʻrin egallashini koʻrsatadi. Ajratib olingan barcha patogen bakteriyalarda antibiotiklarga sezuvchanlik aniqlandi.

Salmonella turlarining 100%i ampitsillinga (AMP) chidamli, 46,2% (12/26) esa ko-trimoksazolga chidamli boʻlgan. Diareya chaqiruvchi E.coli ETEC turining 57,1%i (4/7) ampitsillinga, EPEC izolyatlarining esa 100%i (32/32) ko-trimoksazolga chidamli ekani aniqlandi. Shuningdek, 3 nafar (10.3%) C.jejuni bakteriyasining azitromitsinga chidamli ekanligi, shu bilan birga eritromitsinga ham chidamli ekanligi kuzatildi. C.jejuni bakteriyasining 100%i siprofloksatsin va nalidiks kislotasiga chidamli ekanligi ham maʼlum boʻldi.

Ikkinchi eng koʻp uchragan etiologik diareya agenti bu E.coli boʻlib, antibiotik sezgirligini aniqlash asosida, xizmat safarida kelib chiqadigan xizmatchilarning diareyasi uchun azitromitsin birinchi qatordagi terapiya sifatida qolishi kerakligi tasdiqlandi.

Bemorlarda rivojlangan diareyaning etiologik agentlarini kuzatish va antibiotiklarka sezuvchanligini tekshirish boʻyicha tadqiqotlar davom ettirilishi lozim. Bunday tadqiqotlar sayyohlarni himoya qilish hamda diareya kasalliklari xavfini minimallashtirish uchun zarur boʻlgan muhim maʼlumotlarni taqdim etadi.

Xulosa: Tadqiqotimiz natijasida Campylobacter bakteriyalari, asosan diareya sababchisi ekanligi hamda xinolonlar, ftorxinolonlarga toʻliq chidamli boʻlganligi aniqlandi. Shu sababli, ushbu antibiotiklarni empirik qoʻllash maqsadga muvofiq emasligini koʻrsatadi. Xizmat safari vaqtida kelib chiqadigan diareya uchun azitromitsin birinchi qatordagi terapiya sifatida foydalanish lozimligi isbotlandi.

# MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| 1. | *Abdullayeva Dilafruz Gayratovna, Gayberdiyeva Hilola Olimjon qizi II-TUR QANDLI DIABET BEMORLARDA HAYOT TARZI VA JISMONIY FAOLLIKNI O'RGANISH NATIJALARI* | 2 |
| 2. | *Abdullayeva D.G., Yuldasheva M.I. XOKKEY SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHI BOLALAR OVQATLANISH STATUSINI GIGIYENIK BAHOLASH VA UNI OPTIMALLASHTIRISH MASALALARI* | 3 |
| 3. | *Abduraximova L.A., Komilova L.B SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA RATSIONAL OVQATLANISHNI PROGNOZLASHNING GIGIYENIK AHAMIYATI* | 4 |
| 4. | *Abrorov Javohir Jahongir o'g'li AHOLINING OVQATLANISH HOLATINI GIGIYENIK BAHOLASH USULLARI* | 5 |
| 5. | *Ahmedova S.T., Ashurova F.G'.SOG'LOM OVQATLANISHNI AHAMIYATI VA SEMIZLIKNI OLDINI OLISH* | 6 |
| 6. | *Asatova Nafisa Boxodirovna OZIQ-OVQAT PATOGENLARINING ETIOLOGIK DIAGNOSTIKASI* | 7 |
| 7. | *Axmedova.S.T., Muxammadiyev.O.B. MIKROBIOTA VA OVQATLANISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK* | 8 |
| 8. | *Axmedova.S.T., Muxammadiyev.O.B. IMMUNITETNI KUCHAYTIRISHDA OVQATLANISHNING ROLI* | 9 |
| 9. | *Alimuhamedov D.Sh., Davlatboyeva.S.U. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OVQATDAN ZAHARLANISHNING OLDINI OLISHDA SANITARIYA-GIGIYENIK OMILLARNING ROLI* | 10 |
| 10. | *Alimuhamedov D.Sh., Mirzayeva G.E. HOMILADOR AYOLLAR OVQATLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI* | 11 |
| 11. | *Alimuhamedov D.Sh., Fazliddinova F.Q. AYOL ISHCHILARNING OVQATLANISH STATUSINI GIGIYENIK XUSUSYATLARI* | 12 |
| 12. | *Alimuxamedov Dilshod, Eshkuvatov Komil, Fazliddinova Feruza SANOAT KORXONALARIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN AYOL ISHCHILARNING OVQATLANISH STATUSINI GIGIYENIK BAHOLASH: TIZIMLI ADABIYOTLAR SHARHI* | 13 |
| 13. | *Alimuxamedov D.Sh, Ismoilova Z.I. ALIMENTAR SEMIZLIKDA OVQATLANISHNING AHAMIYATI* | 14 |
| 14. | *Aminova Moxinur Normurod qizi, Axmedova Saodat Tashboltayevna ZAMONAVIY TIBBIYOTDA PERSONALLASHTIRILGAN OVQATLANISHNING AHAMIYATI* | 15 |
| 15. | *Atamuradov Shamsidin Ilashevich, Bekkamov Elmurod Shuxratovich HARBIY XIZMATCHILAR UCHUN BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALAR (BFQ) VA OZIQ-OVQAT QO'SHIMCHALARINING FOYDA-XAVF MUVOZANATI HAMDA XALQARO AMALIYOT* | 16 |
| 16. | *Bekchanova Mushtariybonu Xurrambek qizi RATSIONDA OQSIL TANQISLIGI OQIBATLARINING GIGIYENIK JIHATLARI* | 17 |
| 17. | *Bo'riboyev Eldar Mamurjonovich ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTIDA TO'G'RI OVQATLANISH NAZARIYASI* | 18 |
| 18. | *Bo'riboyev E.M., Saloxiddinova S.O. FAST FOOD MAHSULOTLARINING SANITARIYA-GIGIYENIK XAVFSIZLIGI TAHLILI* | 19 |
| 19. | *Bo'riboyev E.M., Abdullayeva M.N. AHOLINING OVQATLANISH ODATLARI, RATSION SIFATINI GIGIYENIK BAHOLASH* | 20 |

| | | |
|---|---|---|
| 34. | *Komil Ruziboyevich Eshkuvatov, Odinaxon Bahodirjon qizi Ortiqboyeva GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA TABIIY OFATLAR XAVFINING ORTISHI VA AHOLI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH* | 35 |
| 35. | *Ermatov.NJ., Sherqo'ziyeva G.F., Toshpulatov B.M. SOG'LOM TURMUSH TARZI VA TIBBIY SAVODXONLIKNING AHOLI SALOMATLIGIDAGI O'RNI* | 36 |
| 36. | *Komil Ruziboyevich Eshkuvatov, Zuhra Furqat qizi Norqulova TIBBIYOT TALABALARINING FAVQULODDA VAZIYATLARDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISHGA TAYYORGARLIGINI BAHOLASH* | 37 |
| 37. | *Eshkuvatov Komil Ruziboyevich, Muzaffarova Sevarabonu Bahodir qizi NOTO'G'RI OVQATLANISHNING AHOLI SALOMATLIGIGA TA'SIRI: OVQATLANISH GIGIYENASI NUQTAYI NAZARIDAN GLOBAL MUAMMO* | 38 |
| 38. | *Eshkuvatov Komil Ruziboyevich, Muzaffarova Sevarabonu Baxodir qizi FAVQULODDA VAZIYATLARDA METABOLIK STRESS, IMMUN JAVOB VA NUTRIYENT GOMEOSTAZI: MOLEKULYAR VA TRANSLATSION NUTRITSIOLOGIYA KONSEPSIYASI* | 39 |
| 39. | *Fayzullayeva O.F. OVQATLANISHDA YOG' ALMASHINUVI BUZILISHI – ATEROSKLEROZ* | 40 |
| 40. | *Hamroev Farmon Mardonovich MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SUT TA'MINOTINI GIGIENIK BAHOLASHDA HACCP TIZIMINING TUTGAN O'RNI* | 41 |
| 41. | *Hamidova Shahzoda Asliddin qizi ZAMONAVIY NUTRISIOLOGIK TEKSHIRUVLAR, KASALLIKLAR PROGNOZI VA STATUSINI BAHOLASHNI ZAMONAVIY TEXNOLOGIK USULLAR.* | 42 |
| 42. | *Hasanova F.A. OVQATLANISHDA YOG' ALMASHINUVI BUZILISHI – JIGAR KASALLIKLARIDAGI AHAMIYATI* | 43 |
| 43. | *Iskandarova G. Sh UGLEVODLARNING OVQATLANISHDAGI AHAMIYATI* | 44 |
| 44. | *Iskandarova Gulsevar Shavqi qizi MINERAL ELEMENTLARNING OVQATLANISHDAGI AHAMIYATI* | 45 |
| 45. | *Kalandarova Gulrux Davronovna YOD TANQISLIGIDA GIMNAST QIZLAR OVQATLANISHINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH* | 46 |
| 46. | *Kamilova A.Sh., Odiljonova Sh.A. BOLALAR SALOMATLIGINI SAQLASHDA OVQATLANISH TARTIBINING AHAMIYATLI JIHATLARI* | 47 |
| 47. | *Kamilov Djamshid Yuldashevich POLIMER ZAVODI IShChILARINING MAVSUMIY OVQATLANISh TARTIBI: GIGIENIK VA PROFILAKTIK ASOSLARI* | 48 |
| 48. | *Mamadaliyev Boburjon Odiljon o'g'li BOLALARNI QO'SHIMCHA OVQATLANTIRISHDA NUTRITSIOLOGIYA FANINING O'RNI* | 49 |
| 49. | *Mamasoliyeva Shoxista Abdugapparovna, Narzillayeva Shirin Aziz Qizi O'SMIRLAR ORASIDA NOTO'G'RI OVQATLANISH VA UNING SALOMATLIKKA TA'SIRI* | 50 |
| 50. | *Mamatmusayeva Fotima Shaydullayevna DIAREYASIGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNING ANTIBIOTIKLARGA SEZGIRLIGI* | 51 |
| 51. | *Mamatova N.M, Raximova N.F. CISTANCHE MONGOLICA O'SIMLIGIDAN OLINGAN IRIDIOIDLARNING AMALIYOTDA QO'LLANILISH* | 52 |